



BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Zulfizar Xatamovna Irgasheva

Ingliz tili integrallashgan kursi № 1

kafedrası katta o‘qituvchisi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, Uzbekistan

+998935151617

zulfizarxatamovna@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida muloqot madaniyatini rivojlantirishning metodik asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchining kommunikativ kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki samarali pedagogik faoliyat o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi to‘g‘ri va madaniyatli muloqotga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida kommunikativ yondashuv, interfaol metodlar va pedagogik muloqot strategiyalarining roli o‘rganildi. Shuningdek, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida nutq madaniyati, muomala etikasi va samarali muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va kommunikativ metodlardan foydalanish talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Muloqot madaniyati, ingliz tili, samarali aloqa, zamonaviy ta’lim

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация В данной статье анализируются методические основы развития культуры общения у будущих учителей английского языка. В условиях современного образования коммуникативная компетенция учителя играет важную роль, поскольку эффективная педагогическая деятельность основывается на конструктивном и культурном взаимодействии между преподавателем и обучающимися. В исследовании рассматривается роль коммуникативного подхода, интерактивных методов обучения и стратегий педагогического общения в образовательном процессе. Особое внимание уделяется методам формирования речевой культуры, этики общения и навыков эффективного взаимодействия у будущих учителей английского языка. Результаты

исследования показывают, что использование современных педагогических технологий и коммуникативных методов способствует развитию культуры общения у студентов.

Ключевые слова: Культура общения, английский язык, эффективное общение, современное образование

METHODOLOGY FOR DEVELOPING COMMUNICATION CULTURE IN FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

Abstract This article analyzes the methodological foundations for developing communication culture in future English language teachers. In modern education, the communicative competence of teachers plays a significant role, as effective pedagogical activity is based on constructive and culturally appropriate interaction between teachers and students. The study examines the role of communicative approaches, interactive teaching methods, and pedagogical communication strategies in the educational process. Special attention is given to methods that contribute to the formation of speech culture, communication ethics, and effective interaction skills among prospective English teachers. The results of the study indicate that the use of modern pedagogical technologies and communicative methods significantly contributes to the development of communication culture among students.

Key words: Communication culture, English language, effective communication, modern education

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasida muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim huquqiy hujjatlardan biri — O‘zbekiston Respublikasining 439-II-sonli “**Axborot erkinligi to‘g‘risida**”gi qonuni hisoblanadi. Ushbu qonun fuqarolarning axborot olish huquqini ta‘minlab, davlat organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni mustahkamlashga qaratilgan. Mazkur hujjat jamiyatda axborotga bo‘lgan ehtiyojni oshirish bilan birga, kommunikatsiya madaniyatining rivojlanishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, u fuqarolar va davlat organlari o‘rtasida samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish, o‘zaro hurmat va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi huquqiy me‘yorlarni belgilaydi. Natijada jamiyatda ijtimoiy muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy asoslar yaratiladi [1]. Zamonaviy ta‘lim tizimida o‘qituvchilarning kommunikativ ko‘nikmalari va muloqot madaniyati muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til o‘rgatish jarayonida samarali muloqot qilish qobiliyati ta‘lim sifatini oshirish va talabalarning o‘qishdagi muvaffaqiyatini ta‘minlash uchun zarur. O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqot nafaqat bilimlarni uzatish, balki talabaning shaxsiy va madaniy rivojlanishiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ingliz tili o‘qituvchilari boshqa madaniyatlarni o‘rganish va talabalarga o‘zaro madaniy anglashuvni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining muloqot madaniyatini takomillashtirishning ahamiyatini yoritishdir. Bu jarayon o‘qituvchining tilni o‘rgatishdagi metodologik yondoshuvlaridan tortib, talaba bilan o‘zaro muloqotda madaniy farqlarni hisobga olish, norasmiy muloqot uslublarini tanlashgacha

bo'lgan keng qamrovli aspektlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan metodik va amaliy tavsiyalar ham keltiriladi. Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, zamonaviy pedagogik yondoshuvlar va til o'rgatish metodlari asosida amalga oshirilishi lozim bo'lgan takomillashtirish choralari ham ko'rib chiqiladi. Ingliz tilini o'rgatishda muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat tilni bilish, balki talaba va o'qituvchi o'rtasidagi madaniy va psixologik omillarni tushunish va samarali muloqot o'rnatish ham zarurdir. Shunday qilib, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining muloqot madaniyatini takomillashtirish, ta'lim jarayonining yuqori samaradorligini ta'minlashda muhim omil bo'ladi [2].

Materiallar va usullar.

Tadqiqot materiallari sifatida pedagogika, metodika va lingvistika sohalariga oid ilmiy manbalar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili o'qitish jarayonida qo'llaniladigan o'quv-uslubiy materiallar xizmat qildi. Tadqiqot davomida talabalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan interfaol metodlar, suhbat, munozara, rolli o'yinlar hamda guruhli ishlash usullaridan foydalanildi. Konfutsiy Xitoyning eng buyuk faylasuflaridan biri bo'lib, uning falsafiy qarashlari jamiyatda axloqiy me'yorlarni, o'zaro munosabatlarni va ijtimoiy tartibni rivojlantirishga qaratilgan. Konfutsiylikda muloqot madaniyati muhim o'rin tutadi va u o'zaro hurmat, odob, va mas'uliyatni ta'kidlaydi. Xitoyda muloqot madaniyati o'zining uzoq tarixiy an'analari, falsafiy qarashlari va jamiyatdagi ijtimoiy strukturasi bilan shakllangan. Xitoy muloqoti asosan ijtimoiy hurmat, muomalaga alohida e'tibor, va kollektiv qadriyatlarga asoslangan edi [3]. Xitoyning yirik huquqiy va falsafiy manbalaridan biri "Tsin fa" Xitoyning qadimiy qonunlari, axloqiy me'yorlari va jamiyatdagi munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan huquqiy tamoyillarni o'z ichiga oladi. "Tsin fa" asosan Xitoy tarixidagi eng muhim huquqiy va siyosiy asarlardan biri sifatida ko'riladi, u muloqot madaniyatining shakllanishi va rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatgan. Muloqot madaniyati ham Avesta matnlarida o'z aksini topgan bo'lib, ularning ko'plari ijtimoiy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar va kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan. Zaratushtiylikka ko'ra, inson o'zining yuksak axloqiy fazilatlarini, shu jumladan sodda va to'g'ri so'zlashni, o'zini tartibga solishni va boshqalarga hurmat ko'rsatishni rivojlantirish kerak. Bunda muloqotning so'z va amaldagi haqqoniyligi muhim ahamiyatga ega. Fors va Arab dunyosining mashhur faylasufi va mutafakkiri Abu Nasr Farobiy Sharq falsafasining asoschilaridan biri bo'lib, uning ilmiy merosi, ayniqsa, falsafa, axloq, ijtimoiy siyosat va muloqot madaniyati sohalarida katta ahamiyatga ega. U, asosan, Yunon falsafasini Sharqqa tanitgan, Aristotel va Platonning ta'limotlarini Sharq an'analariiga moslashtirgan olim sifatida tanilgan. Forobiyning eng mashhur asarlaridan biri bo'lgan "Shaharning Fazilatli Fuqarolari" (Arabcha: "Al-Madina al-Fadila") asarida, u mukammal jamiyatni qanday tashkil etish haqida fikr yuritadi. Asarda muloqot madaniyati ijtimoiy hayotning bir qismi sifatida yoritiladi, ayniqsa, fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar va hukumat bilan fuqarolar o'rtasidagi o'zaro aloqalar masalalariga alohida e'tibor qaratiladi [4],[5]. Pedagogik kuzatuv va tahlil orqali talabalarning nutq madaniyati, muloqot etikasi va kommunikativ kompetensiyasini

shakllantirish jarayoni o‘rganildi. Olingan natijalar tahlil qilinib, umumlashtirildi hamda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida muloqot madaniyatini rivojlantirishning samarali metodlari aniqlab berildi.

Natijalar.

Demokratik jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash uchun muloqotda adolatli, muloyim va xushmuomalalik bilan yondashishni tavsiya qilinadi. Konstitutsiya ham o‘z navbaida muloqot, ijtimoiy tuzum va jamiyatdagi munosabatlarni tartibga solishda asosiy vosita hisoblanadi.

Mavjud adabiyotlarni o‘rganish va ularda ilgari surilgan g‘oyalar bilan tanishib ta‘lim metodistlari va psixologlar muloqotda nafaqat til, balki o‘qituvchining etika va muloqotdagi shaxsiy yondashuvining ham muhimligini ta‘kidlaydilar. A.Qodirov, E.Husanov, T.Jumayev, Sh.Saidov, V.Karimova, G‘.Shaumarov, Z.Nishonova, R.Sunnatova, Sh.Barotovlar; N.Muslimov, O‘.Tolipov, Sh.E.Kurbanovlar boshqaruvning pedagogik jihatlarini tadqiq etganlar. Pedagog olim J Sodikovning fikricha [6], muloqot madaniyati o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali aloqalarni ta‘minlashda, o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida to‘g‘ri, ochiq va ijobiy muloqot o‘rnatish, o‘quvchilarning o‘zini erkin ifodalashiga va ta‘lim jarayonida faollik ko‘rsatishlariga yordam beradi. Pedagog olim o‘qituvchilarni o‘z muloqot madaniyatini rivojlantirishga chaqiradi. U o‘qituvchilarga o‘z fikrlarini aniq, ravon va tushunarli ifodalashni, o‘quvchilarni tinglash va ular bilan samimiy va hurmatli muloqot qilishni o‘rgatishni zarur deb hisoblaydi. O‘qituvchining muloqot madaniyati o‘quvchilarga namuna bo‘lishi, ularning o‘zaro aloqalarini va muloqot madaniyatini yaxshilashga yordam beradi. Muloqotning sifatini yaxshilash - ijtimoiy rivojlanishga turtki bo‘lishi eng asosiy maqsadlarimizdan biridir. Muloqot madaniyatini takomillashtirish jamiyatdagi ijtimoiy rivojlanishni ham kuchaytiradi. O‘quvchilardan tortib, ilmiy hamjamiyatgacha barcha sohalarda ochiq va konstruktiv muloqot ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili hisoblanadi.

Munozara.

Ingliz tili o‘qituvchilari o‘z faoliyatida nafaqat tilni o‘rgatish, balki talabalar bilan samarali, madaniy jihatdan to‘g‘ri muloqot qilishlari zarur. Ushbu masala o‘qituvchilarning o‘zaro kommunikatsiyasi, shuningdek, talabalarga tilni o‘rgatish jarayonida qanday munosabatlar va o‘zaro anglashuv shakllanishi haqida turli fikrlar va munozaralar yuzaga keltiradi.

Muloqot madaniyati o‘qituvchining tilni o‘rgatishdagi muvaffaqiyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir qiladi. O‘qituvchi nafaqat grammatikani, balki madaniy kontekstni ham tushunishi, talabalarga boshqa xalqlarning an‘analari, qadriyatlari va turmush tarzlari haqida ma‘lumot berishi kerak. Bu talabalar uchun ingliz tilini o‘rganishning nafaqat til o‘rganish, balki madaniyatlararo aloqani rivojlantirish ekanligini tushunishga yordam beradi. Bunday yondoshuv talabalarga ingliz tilida gapirishdan tashqari, ularni global ijtimoiy muhitda o‘zaro hurmatga asoslangan muloqotga o‘rgatadi.

Bizningcha, muloqot madaniyati o‘quvchilarda faqat bilimlarni uzatish emas, balki ularning ma'naviy-axloqiy jihatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘qituvchilar va tarbiyachilar o‘z muloqot madaniyatini rivojlantirish orqali, yoshlarni insoniy qadriyatlarini, madaniy va axloqiy me'yorlarni hurmat qilishga o‘rgatishlari mumkin.

Xulosa

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, samarali pedagogik faoliyat o‘qituvchining kommunikativ kompetensiyasi, nutq madaniyati hamda muloqot etikasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuning uchun ham oliy ta’lim jarayonida talabalarning muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Ingliz tili o‘qituvchilarining muloqot madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik metodlar, interaktiv mashqlar va texnologiyalarning samarali qo‘llanilishi muhim ahamiyatga ega. Bunday yondoshuvlar talabalarga nafaqat tilni o‘rganishda, balki turli madaniy kontekstlarda muloqot qilishda ham yordam beradi. O‘qituvchilar ingliz tilini o‘rgatish jarayonida o‘zaro aloqada bo‘lishning yangi usullarini topib, talabalarga madaniy va lingvistik farqlarni tushunish imkonini yaratishlari lozim.

Shuningdek, muloqot madaniyatini takomillashtirishda texnologiyalarning o‘rni kattadir. Mobil ilovalar, video darslar, onlayn platformalar yordamida o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida muloqotni samarali tashkil etish mumkin. Biroq, texnologiyaning haddan tashqari qo‘llanilishi yuzma-yuz muloqotning o‘rnini to‘liq qoplay olmaydi, shuning uchun shaxsiy aloqaning ahamiyatini e’tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining muloqot madaniyatini takomillashtirish zamonaviy ta'lim tizimida ta'limning yuqori sifatini ta'minlash, talabalarning tilni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularning global jamiyatda muvaffaqiyatli muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon o‘qituvchining nafaqat til, balki madaniyat va pedagogik yondoshuvlar bilan ham boyitilgan bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi. (2002). **Axborot erkinligi to‘g‘risidagi** Qonun, 439-II-son. Tashkent. pp. 1–12.
2. Karimov, I. (2010). *Pedagogik kommunikatsiya va muloqot madaniyati*. Tashkent: Fan. pp. 25–98.
3. Toshboyev, S. (2015). *Oliy ta’limda ingliz tili o‘qitish metodikasi*. Tashkent: Akademiya. pp. 45–120.
4. Qodirov, B. (2018). *Oliy ta’lim muassasalarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish*. Tashkent: TDTU nashriyoti. pp. 12–76.
5. Холиқов А. Педагогик маҳорат //, дарслик, Тошкент «ИҚТИСОДМОЛИЯ» 2011, 420 б
6. Диярова Ш.Р. Талабаларда ҳуқуқий маданиятни ривожлантириш майдони // Интернаука - Научный журнал М., – №19(148) Май – 2020

7. Howard Giles: Speech Communication, Linguistics Language
8. Claude Shannon “Theory of communication” 2021, p 254-261.
9. J. Sodiqov “Pedagogika asoslari” 2020, 98 b.
10. <https://lex.uz/docs/-5426736>